XALQ DEPUTATLARI MARHAMAT TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil 7 - avgust VI-47-68-1-24-K/23 Marhamat tumani hokimligi

Marhamat tumani hokimining “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Ipak yo‘li” ko‘chasida yashovchi aholini “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga hamda “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Noraybo‘ri” ko‘chasida yashovchi aholini “Markaziy” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritib maqbullashtirish haqidagi takliflari to‘g‘risida

Marhamat tumani “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Ipak yo‘li” ko‘chasida yashovchi aholini “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga hamda “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Noraybo‘ri” ko‘chasida yashovchi aholini “Markaziy” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritib maqbullashtirish haqidagi tuman hokimining takliflarini ko‘rib chiqib, “Ipak yo‘li” hamda “Noraybo‘ri” ko‘chasida yashovchi aholining talab va istaklarini e’tiborga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Marhamat tumani hokimining tumandagi “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Ipak yo‘li” ko‘chasida yashovchi aholini “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga hamda “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Noraybo‘ri” ko‘chasida yashovchi aholini “Markaziy” mahalla fuqarolar yig‘ini

tarkibiga kiritib maqbullashtirish haqidagi takliflari ma’qullansin (takliflar ilova qilinadi).

2. “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘inining 2023-yil 7-fevraldagi 6-son vakillar yig‘ilishi bayoni va qarori, shuningdek, “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘inining 2023-yil 7-fevraldagi 5-son vakillar yig‘ilishi bayoni va qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Ipak yo‘li” ko‘chasi hamda ushbu ko‘chadagi 50 ta xonadondan iborat 69 ta oilalarda yashovchi 263 nafar aholi “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarilib, “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritilsin.

4. “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Noraybo‘ri” ko‘chasi hamda ushbu ko‘chadagi 220 ta xonadondan iborat 255 ta oilalarda yashovchi 1228 nafar aholi “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarilib, “Markaziy” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritilsin.

5. Tuman hokimligi (D.Ismoilov), tuman statistika bo‘limi (M.O‘rinboev), tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Axunov), Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limi (E.Karimov), Davlat kadastrlari palatasi Marhamat tuman filiali (O.Xamraqulov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Botirov), tuman qurilish bo‘limi (Z.Abduraxmonov), Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tuman bo‘limi (M.Sotqulov), “Oybek”, “Paxtakor”, “Oqbosh”, “Markaziy” mahalla fuqarolar yig‘ini raislariga tashkiliy ravishda:

- mazkur qaror bilan “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Ipak yo‘li” ko‘chasida yashovchi 50 ta xonadondan iborat 69 ta oilalarda yashovchi 263 nafar aholini “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarilib, “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritilganligi;

- shuningdek, “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Noraybo‘ri” ko‘chasida yashovchi 220 ta xonadondan iborat 255 ta oilalarda 1228 nafar aholini “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarilib, “Markaziy” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni amaldagi tartiblar asosida tegishli mutasaddi va mas’ul organlarning davlat reestri va elektron bazasida shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (E.Jo`rayeva) mazkur qarorni

hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning ijro etilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimining o‘rinbosari D.Ismoilov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B. B. Yuldashev**

Xalq deputatlari Marhamat tuman
Kengashining
2023-yil 7-avgustdagi
VI-47-68-1-24-K/23-son qaroriga
1-ilova

Marhamat tumanidagi “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Ipak yo‘li” ko‘chasida yashovchi aholini “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga hamda “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Noraybo‘ri” ko‘chasida yashovchi aholini “Markaziy” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritib, maqbullashtirish to‘g‘risida takliflar

Marhamat tumanidagi “Oybek” va “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tuman hokimi nomiga iltimosnoma kiritib, unda:

- tumandagi “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Ipak yo‘li” ko‘chasidagi 50 ta xonadondan iborat 69 ta oilalarda yashovchi 263 nafar aholi “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan 8 km masofa uzoqlikda alohida (“Oybek” tarkibiga kiruvchi, lekin boshqa mahalla maydonlari bilan o‘ralgan) holatda “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashganligi;

- “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Noraybo‘ri” ko‘chasidagi 220 ta xonadondan iborat 255 ta oilalarda yashovchi 1228 nafar aholi “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan 3 km masofa uzoqlikda alohida (“Oqbosh” tarkibiga kiruvchi, lekin boshqa mahalla maydonlari bilan o‘ralgan) holatda “Markaziy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashganligi, ushbu “Ipak yo‘li” hamda “Noraybo‘ri” ko‘chasida yashovchi fuqarolarning ijtimoiy-ma’naviy va iqtisodiy hayotida ko‘plab noqulaylik va qiyinchiliklarni yuzaga keltirayotganligi bayon qilingan.

Iltimosnomada shuningdek, mazkur masalalar yuzasidan fuqarolarning so‘rov va murojaatlarini inobatga olib, “Oybek” va “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘inlarida 2023-yil 7-fevralda vakillar yig‘ilishi o‘tkazilganligi hamda vakillar yig‘ilishida “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Ipak yo‘li” ko‘chasi hamda ushbu ko‘chadagi 50 ta xonadondan iborat 69 ta oilalarda yashovchi 263 nafar aholi “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarilib, “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga:

- “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Noraybo‘ri” ko‘chasi hamda ushbu ko‘chadagi 220 ta xonadondan iborat 255 ta oilalarda yashovchi 1228 nafar aholi “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarilib,

“Markaziy” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritish masalasi bir ovozdan ma’qullanib, mazkur masalani tegishli tartibda hal etish choralarini ko‘rilishi so‘ralgan.

Tuman hokimligi mazkur masalani tegishli komissiya va mutaxassislar ishtirokida har ikki mahallada batafsil o‘rganib chiqdi va “Ipak yo‘li” hamda “Noraybo‘ri” ko‘chasida yashovchi aholining talab va istaklarini e’tiborga olib, “Oybek”, “Paxtakor”, “Oqbosh” “Markaziy” mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan kelishilgan holda quyidagi takliflar:

- “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Ipak yo‘li” ko‘chasi hamda ushbu ko‘chadagi 50 ta xonadondan iborat 69 ta oilalarda yashovchi 263 nafar aholi “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarilib, “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritilishini;

- “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidagi “Noraybo‘ri” ko‘chasi hamda ushbu ko‘chadagi 220 ta xonadondan iborat 255 ta oilalarda yashovchi 1228 nafar aholi “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarilib, “Markaziy” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritilishini maqsadga muvofiq deb topdi.

Yuqoridagi takliflar Xalq deputatlari Marhamat tumani Kengashining navbatdagi sessiyasida ko‘rib chiqilishi uchun kiritilmoqda.

Masalaga oid hujjatlar - “Oybek” mahalla fuqarolar yig‘inining 2023-yil 7-fevraldagi 6-son vakillar yig‘ilishi bayoni va qarori, shuningdek, “Oqbosh” mahalla fuqarolar yig‘inining 2023-yil 7-fevraldagi 5-son vakillar yig‘ilishi bayoni va qarori ilova qilinadi.